



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## ZAMONAVIY TA'LIMDA FASILITATOR FAOLYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mamaraimova Mohlaroyim**  
GulDU Pedagogika va psixologiya  
yo'nalishi magistranti

*Annotatsiya: Ushbu tezisda Zamonaviy ta'limda fasilitator faolyati va pedagogik jarayonlarni o'ziga xos talqini yoritib berish ko'zda tutilgan.*

*Kalit so'zlar: Kredit-modul, lektor, tyutor, edvayzer.*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqdaki, buning zaruriy sharti o'qituvchining o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirishdir. O'qitishning o'zini axborotni uzatish sifatida emas, balki mazmunli o'quv jarayonlarini osonlashtirish sifatida tashkil etish zarurati mavjud. Shu boiz, ta'lim jarayonida fasilitatsiya va fasilitator tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Kredit-modul tizimida akademik faoliyat turlari. Kredit ta'lim tizimini joriy etishning yangi sharoitlarida professor-o'qituvchilarning roli ham sezilarli darajada o'zgaradi. Kredit ta'lim tizimida o'qituvchi (pedagog) o'zining vazifasiga ko'ra ta'lim jarayonining quyidagi sub'ektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkinligi qayd etib kursatilgan:

- lektor;
- tyutor;
- edvayzer;
- Fasilitator
- maxsus komissiya a'zosi.

Lektor sifatida yuqori akademik professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o'qituvchilar tayinlanadi. Shu tariqa ular ma'ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada tashkil etadi va olib borishadi.

Ma'ruzalar akademik potoklarga, ya'ni mutaxassisligi yaqin bo'lgan bir nechta guruhlariga o'qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditoriyaning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Professor va dotsentlar o'zlarining ilmiy saviyasi, ilmiy izlanish yo'nalishlari va pedagogik mahoratidan kelib chiqib bir mutaxassislik ichida bir nechta fanlaridan ma'ruza o'qishlari mumkinligi aytib o'tilgan.

Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi qaroriga ko'ra ma'ruza o'qish huquqi ilmiy darajasiz, lekin eng tajribali va yuqori malakali o'qituvchilarga ham beriladi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Lektor, tyutor, edvayzer va boshqa sub'ektlarning vazifalari. Lektor o'zining har bir ma'ruza mashg'uloti bo'yicha o'qituvchi rahbarligisiz amalga oshiriladigan talabaning mustaqil ta'limiga (TMT) ga 0,5-1 soat oralig'ida vaqt ajratishi maqsadga muvofiq ekanligi belgilab qo'yilgan.

Tyutor – fan o'qituvchisi sifatida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib boradi, maslahat beradi, O'RTMI ni tashkil qiladi va amalga oshiradi, kurs ishlariga rahbarlik qiladi, amaliyotlarni tashkil qiladi.

Tyutorning amalga oshirish vazifasi har bir talabaning fanni o'rganishini nazorat qiladi, shaxsiy topshiriqlarni bajarishini va amaliy mashg'ulotlardagi faoliyatini baholaydi va zarur bo'lsa ularga amaliy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, tyutor talabaning aniq bir fanni o'rganishdagi faoliyatini umumiy tahlil qilishi mumkin.

Tyutorlar quyidagi sifatlarni o'zlarida to'la mujassam etgan bo'lishlari zarur:

- o'qituvchilik: amaliy mashg'ulotlarni yuqori talablar darajasida olib borish, talabalarga kasbiy o'zini anglashda yordam berish, fanning o'quv-uslubiy materiallaridan to'g'ri va samarali foydalanishlarini ta'minlash;
- maslahatchilik: talabalarning bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, guruhli maslahat va muloqot darslarini tashkil etish va olib borish, fanning turli masalalari bo'yicha talabalarga yakka tartibda maslahatlar berish;
- menejerlik: talabalar guruhlarini yig'ish va to'la shakllantirish, guruhli mashg'ulotlarni boshqarish, talabalarning fanni o'zlashtirishini nazorat qilish.

Edvayzer talabalarni oliy o'quv yurtining o'ziga xos jihatlari, ishchi o'quv rejasi mazmuni, diplom olish uchun qo'yiladigan talablar, tanlangan yo'nalishning imkoniyatlari bilan tanishtiradi va talabalarning moyilligi, imkoniyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq shaxsiy o'quv traektoriyalarini tanlashda birlamchi zaruriy yordamchi sanaladi.

Edvayzer qayd qilish tadbirlarida faol ishtirok etadi. Har bir edvayzerga RO tomonidan ma'lum miqdorda talabalar biriktirib beriladi. Talabalar biriktirilgandan so'ng edvayzer ular bilan shaxsiy rejimda ishlashga o'tadi.

Edvayzer tashkiliy-uslubiy ishlarda ishtirok etadi hamda o'quv fanlarni tanlash va ularga yozilish bo'yicha maslahatlar beradi, yo'nalishning tanlov fanlari kataloglari va ishchi o'quv dasturlari bilan tanishtirib boradi.

O'quv yili davomida edvayzer fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan maslahat jadvallariga muvofiq ishlaydi. Talabalarning shoshilinch akademik muammolarini hal qilish maqsadida edvayzer ish jadvalidan tashqari shaxsiy uchrashuvlarni ham belgilashi mumkin.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

**Fasilitator** - (ingliz tilida facilitator, latincha facilis–yengil, qulay) - guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi va to‘la amalga oshiradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni nazorat qiladi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma‘lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi va xulosalarni to‘plashga xarakat kiladi. Supervayzer - quyidagi to‘rt vazifani amalga oshiradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi. Bizning ta‘limda ushbu faoliyatlarning hammasi professor- o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. O‘qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini va sifatini mukammal darajada oshirishga olib keladi.

Fasilitatsiya nima, uning zaminida qanday ma‘no yashiringan?

Fasilitatsiya - bu shunday boshqaruv tizimini yaratish va pedagogik jarayonni tashkil etishni o‘z ichiga olgan maxsus boshqaruv uslubi bo‘lib, unda boshqaruv direktiv xususiyatga ega, o‘zini o‘zi boshqarish tizimining o‘zini o‘zi tashkil etish doirasidan tashqariga chiqmaydi. Sodda qilib aytganda, fasilitatsiya ham jarayon, ham harakat usuli, shuningdek, yuqori sifatli va samarali guruhlarning o‘zaro ta‘sirini amalga oshirish, guruh hamkorligi va qo‘shma faoliyatni tashkil etish vositasidir.

Oliy ta‘lim tizimida fasilitatsiyani talabaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishni ta‘minlaydigan, xonada qulay muhit yaratish maqsadida, talabalarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirish, mustaqil ishlash faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi rivojlantiruvchi ta‘lim usuli sifatida tushunish kerak.

O‘qituvchi-fasilitator - faoliyati ta‘limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida amalga oshiriladigan va ochiqlik, talabalarning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga, faoliyati va harakatlariga empatik qarovchi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini rag‘batlantiruvchi, ishonchli munosabati bilan ajralib turadigan o‘qituvchi.

Fasilitatsiya jarayonida jamoaning uyg‘un va samarali ishlashi, yangi narsalarni yaratish yoki nazariy ilmiy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, keyinchalik amaliy qo‘llanilishini topish uchun izlanishlar olib boriladi. Jamoaviy ish va jamoaviy o‘zaro ta‘sir o‘qituvchining maxsus harakatlari orqali tashkil etiladi. Fasilitatsiya aynan shu harakatlarni osonlashtirish jarayonini aks ettiradi. Unda ustuvorlik pozitsiyasini yetakchi egallaydi. Ta‘lim sohasida bu joy o‘qituvchiga tegishli. Uning vazifasi



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

o'zini hokim sifatida ko'rsatish emas, balki neytral pozitsiyani egallash va talabalarni to'g'ri va rivojlanish yo'nalishiga yo'llashdir.

Fasilitator o'quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi. Ta'lim muassasasi va umuman ta'lim tizimining rivojlanishi samaradorligi fasilitatorning malakasi va kasbiy mahoratiga bog'liq. Unga psixologik o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalari va samarali muloqotni ta'minlash texnologiyalari o'rgatiladi.

Pedagog-fasilitatorning faoliyati ovquvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishga foydali ta'sir ko'rsatadigan, kommunikativ o'zaro munosabat ko'nikmalarini shakllantiradigan va o'quv jarayonida tengdoshlar o'rtasidagi muloqot uchun qulay muhit yaratishga yordam beradigan shunday ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan muassasa. Bu holda o'quv jarayoni erkinlik va sog'liqni saqlashni tejaydigan usullar va texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Fasilitator quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

1. O'quv mashg'ulotida muhokamani to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish va qurish.
2. Jamoaviy qarorlarning xilma-xilligidan eng maqbul va to'g'ri, shuningdek, muayyan vaziyatda samaralini tanlash.
3. Xavfli qarorlar qabul qila olish va ular uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.
4. Talabalarning turli guruhlari, muammoli va qiyin bolalar bilan muloqot qilish.
5. Turli formatdagi suhbatlar, dialoglar, munozaralar qura olish va ularda osongina harakatlana olish.
6. Tarbiyaviy ta'sirning turli uslub va vositalarini qo'llash, ularni samarali birlashtirish.
7. Jamiyat taraqqiyotining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga, ta'lim sohasidagi siyosiy o'nalishlarga moslashish oson.
8. Ta'lim muammolari va vazifalarini hal qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish.
9. Stressli vaziyatlarni enging, his-tuyg'ularingizni boshqaring.
10. Talabalar bilan ochiq muloqot.
11. Shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish va ularning fazilatlarini, qobiliyatlarini o'zgartirish, ko'nikmalarni rivojlantirish istagi.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik neologiya asosida talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish asosiy maqsadi – talabalarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalardagi ijtimoiy faolligini oshirish, ilmiy nazariy jihatdan



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

ta'lim tarbiya jarayonidagi talabalar ishtirokini tubdan isloh qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, jahon tajribasi axborot -kommunikatsiya texnologiyalari va Internetning ta'lim sohasiga keng kirib kelishi ta'lim xizmatlarining globallashuvi uchun ham katta yo'l ochmoqda

Endi, mavzumiz mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan moderatsiya, superviziya, fasilitatsiya, tyutorlik o'zi nima? savoliga to'xtalib o'tamiz. Biz ilmiy izlanishlarimiz davomida mazkur tushunchaning qisqacha mazmunini keltirib o'tishni lozim topdik.

–moderatsiya pedagoglarning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladigan faoliyatdir. Moderatsiya negizida erkin muloqot muhitini tashkil qilish, o'zaro fikr almashish, xodimning ichki salohiyati evaziga kerakli yechimlarga olib keluvchi mulohazalar yuritishga ko'maklashuvchi maxsus texnologiyalardan foydalaniladi

–superviziya pedagoglarning ish jarayonida doimiy hamkorlikda bo'lgan, ularning kasbiy harakatlari va xulqlarini tushunadigan, tahlil qiladigan, anglay oladigan tajribali, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan hamkasblaridan tizimli ravishda muntazam maslahatlar olib turishlariga asoslanadi. Shu bilan birga supervizorlik ko'maklashuvchi va kuzatuvchi texnika sifatida pedagogning kasbiy faoliyatini o'zlashtirish hamda kasbiy takomillashish yo'nalishini loyihalashtirish jarayonida shakllanadigan tajribasiga ham tayanadi.

–tyutorlikka talabalarning iqtidori, qobiliyati va qiziqishlariga qarab o'qish faoliyatini individuallashtirish, individual ta'lim yo'nalishini belgilash va uni amalga oshirishga ko'maklashish, bu jarayonda o'qitishga doir hamda ijtimoiy sharoitlar yaratish sifatida qaraladi.

–fasilitatsiya pedagog faoliyatining hamkasbi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sirini ifodalaydi. Uning asosida talabalar shaxsiga hurmat hamda ta'lim mazmunini mustaqil tanlash huquqi va erkinligi yotadi.

Manbalarga tayanib fasilitator tushunchasini kengroq tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, bu tushuncha klassik psixolog Karl Rodjers tomonidan fanga kiritilgan. Inglizcha so'z "facilitate" – "yengillatmoq, hamkorlik qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Demak, o'qituvchining asosiy vazifasi yengillatish va shu bilan bir vaqtda o'quv-biluv faoliyatini stimullashtirish, ya'ni guruhda zarur intellektual va hissiy muhitni, psixologik qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish bo'lib hisoblanadi.

1.Fasilitatsiyada terapevtik va psixologik ko'rsatmalar orqali ish olib borish (G.T. Baret);



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

2. Fatsilitatsiyada talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali ish olib borish (F. Emer);

3. Fatsilitatsiyadatalabalar orasida o‘zaro ijobiy shaxsiy munosabatlarni shakllantirish orqali ish olib borish (R. Shmak);

4. Fatsilitatsiyada sinegretik (yangicha alternativ) va akmeologik (psixofiziologik) yondoshuvlar orqali ish olib borish (R.S. Dinmuxametov); [6;]

5. Fatsilitatsiyada psixologik, integrativ va individual ish olib borish (I.V. Jijina); [6;]

Keyingi tushuncha – “tyutor”, ingliz tilidan tarjima qilganda “ustoz, tarbiyachi, repititor” degan ma’noni bildiradi. Zamonaviy pedagogikada tyutor – bu o‘qituvchi-maslahatchi, koordinator demakdir. Uning maqsadi – talabaning, unga qulay bo‘lgan tartibda, dars davomida, bilim va malakalarni maksimal darajada mustaqil o‘rganishiga asoslangan ta’lim muhitini yaratish. Shu bilan birga o‘qituvchi talabalarga o‘quv materialidan, internetdan, o‘zlarining amaliy tajribalaridan samarali foydalanishlari uchun yordam beradi. Tyutor mustaqil ish jarayonida talabalarga maslahat beradi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan bir qatorda u shunday samarali ijodiy muhitni yaratadiki, unda talabaning har qanday fikri va g‘oyasini tanqid qilish, o‘z nuqtai nazari va tadqiqot strategiyasini o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tyutor tomonidan koordinatsiyalashtirilgan o‘quv-biluv faoliyati talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi: tashabbuskorlik, ochiqlik, kuzatuvchanlik, ijodiy va intellektual faollik, nostandart qaror qabul qila olish qobiliyati, tanqidiy tafakkur, kattalarning tajribasini qadrlash va diqqat bilan munosabatda bo‘lish, optimizm, tolerantlik.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, tyutorning bajaradigan ishi fatsilitatorniki bilan o‘xshash. Faqat bir jihati bilan farq qiladi: fatsilitatorlikda ijobiy, stimullashtiruvchi o‘quv jarayoni muhitini yaratishga urg‘u beriladi, tyutorlikda esa tashkiliy-koordinatsiyalovchi holatlarga e’tibor qaratiladi.

Demak, talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish jarayonining metodik ta’minoti uzluksiz ta’lim tizimida yuqori pog‘onani ifoda etib, innovatsion jarayon sifatida jamiyatning pedagog xodimlar kasbiy kompetentligiga qo‘yadigan talablari va ularning shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash, motivlarini chuqurlashtirish, individual xususiyatlarini e’tiborga olish, kasbiy faoliyatlariga qulay sharoitlar paydo qilishni nazarda tutadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Димухаметов Р.С. Фасилитация — новая роль методиста (преподавателя) института повышения квалификации // Вестн. Челяб. гос. пед. ун-та. Сер. 3,

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



- Актуальные проблемы образования подрастающего поколения. — 2004. — № 26. — С. 226-236. (0,7 п. л.).
2. Жижина И.В. Психологические особенности развития фасилитации педагога: дисс. ... канд. психол. наук: 19.00.07 / И.В. Жижина. – Екатеринбург: Уральский гос. проф.-пед. ун-т, 2000. – 153 с.
  3. Я. Нурумбекова, Д. Тоштемиров, Ё. Фахриддинов. Умумий педагогика. Darslik.– ГулДУ-2022.
  4. Я. Nurumbekova. Умумий педагогика ва психология. Дарслик – ГулДУ-2023.

